



## METHODS OF REFLECTING NATIONAL REALITIES IN TRANSLATION AND THEIR TRANSLATION

**Xolmaxmadova Munisa**  
**Shoyqulova Mohizar**  
**Ahrorova Nafisa**  
**Bobohonova Gulhayo**

4th year students of Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13999762>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> October 2024  
Accepted: 27<sup>th</sup> October 2024  
Online: 28<sup>th</sup> October 2024

### KEYWORDS

*Realia, bo'yra, xari, kigiz, jevak, tepchima do'ppi.*

### ABSTRACT

*This article discusses the significance of national realia encountered during the translation process. It also provides examples of how these realia play a role in the translation of literary works and their specific characteristics. Furthermore, the importance of translation methods and strategies is highlighted. National realia reflect a nation's culture, traditions, and customs, and accurately conveying them in translation is crucial for fostering intercultural understanding and strengthening cultural ties. Translators often face challenges when adapting these realia to another culture. These elements may be related to language, customs, special terms, or cultural contexts. Therefore, translators need to carefully consider how to incorporate them into their translations.*

## MILLIY REALIYALARNI TARJIMADA AKS ETTIRISH VA ULARNI TARJIMA QILISH USULLARI

**Xolmaxmadova Munisa**  
**Shoyqulova Mohizar**  
**Ahrorova Nafisa**  
**Bobohonova Gulhayo**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 4-kurs talabalari  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13999762>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> October 2024  
Accepted: 27<sup>th</sup> October 2024  
Online: 28<sup>th</sup> October 2024

### KEYWORDS

*Realiya, bo'yra, xari, kigiz, jevak, tepchima do'ppi.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada tarjima jarayonida uchraydigan milliy realiyalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, badiiy asar tarjimasida bu realiyalar qanday rol o'ynashi va qanday xususiyatlarga ega ekani haqida misollar berilgan. Shuningdek, tarjima qilishda qo'llaniladigan usullar va strategiyalarning zarurligi muhokama etiladi. Milliy realiyalar bir xalqning madaniyati, urf-odatlarini va an'analarini o'zida aks ettiruvchi jihatlar bo'lib, ularni tarjima qilishda to'g'ri aks ettirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon millatlararo tushunishni yaxshilash va madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarjimonlar*



*realiyalarni boshqa madaniyatga moslashtirishda ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu realiyalar til, urf-odatlar, atamalar va madaniy kontekstlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun tarjimonlar ulardan qanday foydalanishni o'ylab ko'rishlari lozim.*

Realia (ko'plik ism) madaniyatga xos moddiy elementlar uchun so'zlar va iboralardir. Realiya so'zi o'rta asr lotin tilidan olingan bo'lib, u dastlab „haqiqiy narsalar“ degan ma'noda, ya'ni mavhum narsalardan farqli ravishda mavjud narsalarni anglatadi. Realiyani chuqur o'rganishni birinchi bo'lib amalga oshirgan bolgar tarjimonlari Vlahov va Florin so'zning zamonaviy ma'nosini yaratdilar. Ular shuni ko'rsatadiki, realiya juda milliy ohangga ega bo'lgani sababli, ular ko'pincha tarjima uchun qiyinchilik tug'diradi.[1] Realiyani terminologiya bilan chalkashtirib yubormaslik kerak: terminologiya - ilmiy adabiyotda ilmiy sohaga tegishli narsalarni belgilash uchun ishlatiladi va odatda juda aniq stilistik maqsadga xizmat qilish uchun faqat boshqa turdagi matnlarda qo'llanadi. Badiiy adabiyot, ular keltiradigan ekzotik ko'rinish uchun realiyani yaxshi ko'radi rus tarjimashunosligiga 1941-yili Andrey Fedorov kiritdi va ularni "realiya so'zlar" deb atashni taklif qildi. A.V.Fedorov "realiya" deganda "ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi", faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo'q bo'lgan so'zlar"ni tushunadi.[3,160] Realiyalar o'zga tildagi matnlarni tushunish uchun zarur bo'lgan milliy-madaniy birliklar hisoblanadi. Boshqa mamlakatlar tarixi va muhim tarixiy voqealari, madaniyati, xalq og'zaki ijodi, siyosiy hayoti haqida yetarlicha bilimga ega bo'lmaslik til bilimlari borasida kompetensiyani yo'qotishga olib keladi. A.D. Shveytser fikriga ko'ra, realiyalarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular boshqa til va madaniyat tashuvchilari bilim fondidan tashqaridagi, ya'ni ular uchun begona bo'lgan tushunchalar hisoblanadi.[4,153] G'arb tarjima maktabi olimlaridan biri Pedersen realiyani umumiy foydalanishdagi asosiy ma'nosi tufayli juda noaniq va chalkash deya tanqid qiladi. Uning fikrlariga qaraganda, realiyaning asl nomlanishi ("real narsalar") ham haqiqatga ziddir. Realiya so'zlar mavhum tushunchalarni ham anglatishi mumkin. Ushbu paradoksni hal etish uchun Laponen (2009) xayoliy dunyoning o'ylab topilgan buyumlari uchun "irrealiya" ( irrealia) atamasini taklif qilgan. Realiyalar borasidagi yaxlit fikrlar bolgar olimlari S.I.Vlaxov va S.P.Florinlarning "Непереводимое в переводе" asarida batafsil yoritilgan. Unga ko'ra: '^a^alar - muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlari, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari bo'lib, ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar" .Realiyalarning muhim xususiyati ular ifodalaydigan predmetning mohiyatidan kelib chiqadi. Muayyan xalqning turli tarixiy davrlardagi hayot tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti reanyalarning mohiyatiga, albatta, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ana shuning uchun ham realiyalar to'g'risida gapirganda, albatta, milliy o'ziga xoslik va tarixiy kolorit masalasini ^tlab o'tib bo'lmaydi. Chunki realiyalar har qanday holatlarda ham bir vaqtning o'zida milliy va tarixiy bo'yoqqa ega bo'ladilar. Bu esa ularga alohida munosabatda bo'lishlikni talab qiladi.

Misol uchun Abdulla Qodiriyni " Mehrobdan chayon" asarida o'zbek millatiga xos bo'lgan realiya so'zlar bor.



A.Qodiriy. «Mehrobdan chayon» / roman / <<Abadiy barhayot asarlar>> turkumi / Nashrga tayyorlovchi: Xondamir QODIRIY.- T.: "Navro'z", 2019.-288 b.

Abdulla Qodiriy (Julqunboy) Toshkand, 1928-nchi yil, 5 fevral .

1. Bo'g'joma-kiyim-kechak, kiyimlik gazlamalar, tugib qo'yiladigan katta mato; choyshab.O'sha manba-14 bet.

2. Yaktak-uzun, ko'krak oldi ochiq, erkaklar ko'ylagi.O'sha manba 15-bet.

<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yaktak>

3. Haftiyak-Qur'onning yettidan bir qism suralari tanlab olib tayyorlangan va o'tmishda diniy maktablarda o'qish kitobi vazifasini bajargan alohida kitobcha.O'sha manba-16.

4. Bo'yra(bo'ryo) puli- eski maktablarla talabalar o'tiradigan bo'yralarni yangilash uchun vaqti-vaqti bilan ota-onalardan olingan pul.O'sha manba 17- bet.

<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bo%CA%BByra>

5. Jevak-xotin-qizlar bo'yniga taqadigan ziynat buyumi.O'sha manba 24-bet.

6. Xatmi qur'on-Xatmi qur'on-Qur'onni to'liq o'qib tushirish. Ramazon oyida, tarovih namozida Qur'onning avvalidan oxirigacha tilovat qilib chiqilishi ham xatmi Qurondir.O'sha manba 52-bet.

7. Xari-imorat to sinlari ostidan ko'ndalangiga qo'yiladigan uzun, yo'g'on asosiy yog'och. 1992.O'sha manba 199-bet.

8. G'usil- pok bo'lish uchun butun badanni maxsus tartibda yuvish; ustidan suv quyib yuvinish, cho'milish. O'sha manba 14-bet.

9. Tepchima do'ppi-yoqa va shu kabi joylarida ipni sirtga chiqarmay mayda qavib tikilgan do'ppi.O'sha manba 229-bet.

<http://welcomeuzbekistan.uz/ru/unknown-uzbekistan/2215-tyubiteyka.html>

10. Sabnoma-so'kib, tahqir qilib yozilgan xat.O'sha manba 230-bet.

11. Mahzi haqiqat-aynan to'g'ri, faqat to'g'ri gap.O'sha manba 233-bet.

12.Kelim-kelib turadigan daromad, foyda.O'sha manba 11-bet.

<https://www.uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary?q=kelim>

13.Kigiz-yungdan bosib tayyorlanadigan qalin pishiq palos; namat. O'sha manba 252-bet.

<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kigiz>

15. Shaparak-yupqa.O'sha manba 241-bet.

<https://izoh.uz/word/shaparak>

16. To'n-Oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim.O'sha manba 280-bet.

<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/To%CA%BBn>

17. Adras-tanda ipi tabiiy ipak-dan, arqog'i qalin ipdan to'qilgan gaz-lama. Guli ikki tomonlama bo'lgani uchun ayrim joylarda duro'ya deb ataladi.O'sha manba 280-bet.

<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Adras>

18. Chobakdast-chaqqon, epchil, uddaburon.O'sha manba 128-bet.

<https://uz.m.wiktionary.org/wiki/chapdast>

19. Lagan — ro'zg'or buyumi; quyucq ovqatlar, meva-cheva va boshqa narsalar solinadigan katta yuzasi yoyiq keng yassi idish. Sopol, chinni Lagan qadimdan tayyorlangan. Bezakli va bezaksiz qilib tayyorlanadi, sopol Lagan naqshlar bilan bezatilgandan so'ng



sirlanadi. Mis Lagan (ba'zan la'li deb ham ataladi) kandakori usulida naqshlanadi. O'zbekiston hududidan topilgan qad. Lagan turlari muzeylarda saqlanadi. O'sha manba 34-bet.

<https://uz.m.wiktionary.org/wiki/lagan>

20. Maxdum -xizmat qilinuvchi odam pir va ustozlarga beriladigan laqab. Odatda pir va ustozlarga o'z muridlari va shogirdlari xizmat qilishgan. ba'zi joylarda pir, ustoz va ulamolarning o'g'illariga nisbatan ham ishlatadilar. O'sha manba 128-bet.

<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Maxdum>.

## Xulosa

Realialarni o'rganish va tahlil qilish til o'rganish jarayonida alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Negaki, ma'lum bir til amalda bo'lgan davlatda uning madaniyatini ham o'rganish, xalq hayotiga chuqurroq kirib borish til o'rganish jarayonini sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Aynan realiyalar tilning lug'at boyligi, uning frazeologik qatlami, lingvomadaniy birliklarning mazmun-mohiyatini yoritishda muhim birliklar hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarga muvofiq tarzda, realiya atamasini o'zining asl ma'nosida qo'llaymiz va uning bir qancha semantik belgilarini ajratib olamiz, bular:

- 1) xalq ijodi mahsuli ekanligi;
- 2) muayyan xalq hayotiga (turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy rivojlanishiga) oidligi;
- 3) boshqa madaniyat vakillari uchun notanish hisoblangan narsa-buyumlarni ifodalashi;
- 4) milliy va tarixiy bo'yoqqa ega bo'lganligi;
- 5) boshqa tillarda aniq ekvivalentiga ega bo'lmasligi.

Mana shulardan kelib chiqqan holda, realialarni muayyan xalqning milliy, madaniy, ijtimoiy hayotini, turmush tarzini, boy urf-odat va an'analarini o'zida yorqin aks ettiruvchi va shu xususiyatlari bilan boshqa xalqlar milliy madaniyatida takrorlanmaydigan, o'ziga xos birliklar deya ta'rif beramiz.

## References:

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya, darslik. Toshkent 2019.
2. Томахин Г.Д. Реалии в языке и культуре. М.: Иностр. язык в школе, 1997. № 3.
3. Иванов, А.О. Безэквивалентная лексика. Типография издательства СПбГУ,
4. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. 4-е изд. М.: КомКнига, 2007.
5. REALIYALAR SEMANTIKASINING TARJIMA MATNLARDAGI IFODASI 2021 / Zulxumor Turdiyevna Xolmanova, Ziyoda Movlon Qizi Kasimova
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/realiya-tushunchasi-va-uning-tilshunoslikda-organi-lishi>
7. Izzat Sulton. O'zbek adabiy tanqidi. Abdulla Qodiriy va uning "Mehrobdan chayon" romani. – Toshkent: "Turon-iqbol", 2011. – B.70.
8. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Maxdum>
9. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/To%CA%BBn>
10. Bakiyev F. "Til, madaniyat, tarjima va muloqot" Respublika ilmiy-ommaviy konferensiyasi materiallari- Samarqand, 2016-2017 noyabr.